

**O'zbekiston Respublikasi Xalq Ta'limi Vazirligi
Toshkent viloyati Xalq Ta'limi Boshqarmasi**

**Angren shahar Xalq ta'limi muassasalari faoliyatini metodik
ta'minlash va tashkil etish bo'limiga qarashli
13-son umumiy o'rta ta'lim maktabi**

**“Iqtisodiy bilim asoslari” fani o'qituvchisi
Baishev Sobir Abdashevichning**

8-sinflar uchun

“Talabga ta'sir etuvchi boshqa omillar.” mavzusida

1 soatlik

DARS ISHLANMASI

Angren-2016

Iqtisodiy bilim asoslari 8-sinf.

Mavzu: Talabga ta'sir etuvchi boshqa omillar.

Darsning maqsadi:

a) **Ta'limiy:** o'quvchilarga talab haqidagi bilimlarni berishda davom etish, talabga ta'sir etuvchi narxga bog'liq bo'lmagan omillar haqida ma'lumot berish.

b) **Tarbiyaviy:** o'quvchilarda bozorda istemolchi sifatida o'zini tuta olish, iqtisodiy madaniyat tarbiyasini shakllantirish.

c) **Rivojlantiruvchi:** o'quvchilarda hayotiy tajribalarni, jamiyatdagi va iqtisodiyotdagi jarayonlarni kuzatish va tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirish, iqtisodiy savodxonlikni oshirish.

Dars turi: nazariy-amaliy.

Dars tipi: noan'anaviy.

Dars uslubi: tushuntirish, "*Aqliy hujum*", "*Tushunchalar tahlili*", "*Sherigini top*" metodlaridan unumli foydalanish.

Dars jihozlari: 8-sinf "Iqtisodiy bilim asoslari" darsligi, slaydlar, tarqatma materiallar, jadvallar.

Darsda yoritilishi lozim bo'lgan asosiy tushuncha va atamalar:

- *o'zaro bog'liq tovarlar;*
- *bir-birini o'rnini bosuvchi tovarlar;*
- *bir-birini o'rnini to'ldiruvchi tovarlar;*
- *normal tovarlar;*
- *past tabaqali tovarlar;*

Darsning borishi:

I. Tashkiliy qism.

1. Salomlashish.
2. Davomatni aniqlash.
3. O'quvchilarni darsga tayyorlash.

II. O'rganilgan mavzuni takrorlash.

Darsning bu qismida "*Aqliy hujum*" metodidan foydalanib, o'quvchilarga o'tilgan mavzudan savollar bilan murojat etiladi. Masalan:

- *Talab deganda nimani tushunasiz?*
- *Talab miqdori deb nimaga aytiladi?*
- *Talab va talab miqdori oralig'ida qanday farq bor?*
- *Talab chizig'i qanday hosil qilinadi?*
- *Talab qonunini misollar yordamida tushuntirib bering.*
- *Tovarga bo'lgan talabning o'zgarishi qanday omillarga bog'liq?*

(Dars davomida faol ishtirok etgan o'quvchilar quyidagi shakildagi rangli jetonlar bilan rag'batlantirib turiladi.)



III. Yangi mavzuni yoritish.

Tovarga bo'lgan talab tovar narxi o'zgarmaganda ham turli omillar ta'sirida o'zgarishi mumkin. Bu omillardan birini quyidagi misolda ko'rib o'tamiz:

1. Maktab oshonasida tushlikka somsa yoki gumma sotiladi. Somsa va gumma **bir-birini o'rnini bosuvchi tovarlar** sirasiga kiradi.

	Somsa narxi, so'mda	Sotilgan somsalar soni
1-oy	500	5000
2-oy	500	5500
3-oy	500	6000

	Gumma narxi, so'mda	Sotilgan gummalar soni
1-oy	500	5000
2-oy	600	4500
3-oy	700	4000

Uch oy davomida gumma narxi ko'tarildi. Somsa narxi esa o'zgarishsiz qoldi. Yuqoridagi jadvallarda bu oylardagi sotilgan gumma va somsa miqdori berilgan bu ma'lumotlardan foydalanib quyidagi savollarga javob bering:

- a) Jadvalda berilgan somsaning narxi va unga bo'lgan talab miqdoriga e'tibor bering. Somsa narxi o'zgarmasa-da, unga bo'lgan talab miqdori nima sababdan o'zgargan? Taxminiy javob: **“Gumma”ning narxi qimmqtlashib ketdi**.
- b) Bir-birini o'rnini bosuvchi tovarlardan birining narxi oshishi natijasida ikkinchisiga bo'lgan talab qanday o'zgarar ekan?

B'azi bir tovarlarning narxi bir-biriga bog'liq bo'ladi, bir tovar narxining o'zgarishi, ikkinchi tovarga bo'lgan talabning ortishiga, yoki aksincha, kamayishiga olib kelishi mumkin. Bunday tovarlarga **“Bir-birini o'rnini bosuvchi tovarlar”** deyiladi.

Masalan: *margarin va moy, go'sht va kolbasa*

Aksincha, birining narxi oshishi natijasida, ikkinchisiga bo'lgan talab kamayadigan tovarlar ham bo'ladi, bunday tovarlarga "**Bir-birini to'ldiruvchi tovarlar**" deyiladi.


Masalan: *avtomobil va benzin*.

O'zaro bog'liq tovarlar – birining narxi o'zgarishi ikkinchisiga bo'lgan talabning o'zgarishiga olib keladigan tovarlar jufti.

Normal tovarlar – aholi daromadining oshishi bilan unga bo'lgan talab oshadigan tovar.

Past tabaqali tovar – aholi daromadining kamayishi bilan unga bo'lgan talab ortadigan tovarlar.

Bozorda tovarga bo'lgan talabning o'zgarishiga narxga bog'liq bo'lmagan boshqa omillar ham ta'sir qiladi.



Talab chizig'ining o'zgarishi

Narxga bog'liq bo'lmagan yuqoridagi omillar ta'sirida talab chizig'i holatining o'zgarishini tahlil qilamiz. Buning uchun tovarga bo'lgan talab 3-hil jadvalda berilgan bo'lsin.

1-jadval

Narx, so'mda	Boshlang'ich xolatdagi talab miqdori, tonnada
400	400
600	300
800	200

2-jadval

Narx, so'mda	1-xolatdagi talab miqdori
400	500
600	400
800	300

3-jadval

Narx, so'mda	2-xolatdagi talab miqdori
400	300
600	200
800	100

O'quvchilar bu jadval asosida talab chizig'ining boshlang'ich va keying holatini chizib tahlil qiladilar.


Narxga bog'liq bo'lmagan, iste'molchilar daromadlarining o'zgarishi bilan bog'liq omili tahlil qilinadi va jadval plakat quyidagicha to'ldiriladi.

№	Holatlar	Talab oshadi (↑) kamayadi (↓)	Talab chizig'i chapga (←), o'ngga (→)
1.	Iste'molchilar soni ortsa.	↑	→
2.	Iste'molchilar soni kamaysa.	↓	←
3.	Aholining daromadi ko'paysa, ba'zi tovarlarga bo'lgan talab.	↑	→
4.	Aholining daromadi kamaysa, ba'zi tovarlarga talab	↑	→
5.	Aholining qish faslida issiq kiyimga bo'lgan talabi.	↑	→
6.	Aholining yoz faslida issiq kiyimga bo'lgan talabi,	↓	←
7.	Yaqin kelajakda aholi daromadining oshishi kutilyapti.	↑	→
8.	Yaqin kelajakda aholi daromadining pasayishi kutilyapti.	↓	←

IV. O'rganilgan mavzuni mustahkamlasi.

O'qituvchi "**Sherigini top**" metodidan foydalanib quyidagi topshiriqni beradi. Bunda o'quvchi berilgan tushuncha va atamalarga mos javobni topib, ularni strelka yordamida bog'laydi.

"Sherigini top"



V. Xulosa: Tovarga bo'lgan talab narxga bog'liq bo'lmagan quyidagi omillar asosida o'zgarishi mumkin ekan: 1) istemolchilarning didi va yil mavsumining o'zgarishi; 2) bozordagi istemolchilar soninig o'zgarishi; 3) iste'molchilar daromadlarining o'zgarishi; 4) o'zaro bog'liq tovarlar narxining o'zgarishi; 5) yaqin kelajakda iste'molchilar daromadlari va tovar narxi o'zgarishining kutilishi.

VI. Darsni yakunlahs.

1. O'qituvchi o'quvchilar bajargan amaliy ishlari va og'zaki javoblar uchun qo'yilgan baholarni e'lon qiladi.
2. O'qituvchi o'quvchilar uchun tushunarsiz bo'lgan savollarga javob beradi.

VII. Uyga vazifa.

1. "**Bilimingizni sinab ko'ring**" bandidagi 1-2 savollar.
2. Mustaxkamlash uchun 3-savolga berilgan mavjud omillardan birini tanlab, tovarga bo'lgan talab chizig'ini qaysi tomonga ko'chishini aniqlang va grafigini chizing.
3. "**Buni yodda tuting**" bandidagi jummalarni yod olish.